

## ILMIY-TEXNIK TARJIMADA TERMINOLOGIYANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Gulimbayeva Dilobar,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti,  
Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti, 4-bosqich talabasi  
[gulimbayevad@gmail.com](mailto:gulimbayevad@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur tezis ilmiy-texnik tarjimada terminologiyaning o'rni, funksional-stilistik xususiyatlari va tarjima jarayonidagi metodik yondashuvlarni yoritadi. Ilmiy-texnik matnlar aniq semantika, yagona terminologik tizim va standartlashtirilgan ifodaviy vositalarni talab qilishi tufayli tarjimon yuqori darajadagi leksik-semantik kompetensiyaga ega bo'lishi zarur. Tadqiqotda texnik terminlarning shakllanish manbalari, ularning tarjima strategiyalari, ekvivalent tanlash mezonlari hamda terminologik birliklarning izchil qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Tahlil natijalari terminologiyani to'g'ri qo'llash ilmiy kommunikatsiyaning aniqligi va ishonchliligini ta'minlashini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Ilmiy-texnik tarjima, terminologiya, ekvivalentlik, transkripsiya, kalkalash, funksional ekvivalent, standartlashtirish, termin tizimi.

Global ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonida fan va texnologiya sohasiga oid ilmiy axborot almashinuvi tobora ortib bormoqda. Bunday sharoitda ilmiy-texnik matnlarni sifatli tarjima qilish, xususan, terminologik birliklarning to'g'ri va aniq ekvivalentini tanlash alohida ahamiyat kasb etadi. Texnik terminlarning kengayib borayotgan tizimi, neologizmlarning paydo bo'lishi, xalqaro terminlarning milliy tilga moslashtirilishi ushbu jarayonni yanada murakkablashtiradi. Shu sababli ilmiy-texnik tarjimada terminlarni standartlashtirish, ularning funksional ekvivalentini belgilash hamda transkripsiya va kalkalash kabi usullarni ilmiy asosda qo'llash mazkur mavzuning dolzarbligini ta'minlaydi.

Zamonamizda ilmiy-texnik axborot almashinuvi keskin jadallashgani natijasida texnik matnlarni tarjima qilish jarayonida terminologiyaning o'rni alohida dolzarblik kasb etmoqda. Texnologik jarayonlar, muhandislik tizimlari va ilmiy yangiliklarni boshqa tilga to'g'ri yetkazish uchun terminlarning aniq mazmunini saqlash, ularning funksional ekvivalentini topish hamda xalqaro terminlarni standartlashtirilgan shaklda qo'llash zarur hisoblanadi. Ilmiy-texnik sohada terminlar qat'iy semantik chegaraga ega bo'lib, ularning sinonimik variantlar orqali almashtirilishi ma'no buzilishiga olib kelishi mumkin, shu sababli tarjimon termin tizimining barqarorligi va izchil qo'llanishini ta'minlashi talab etiladi.

V.N. Komissarov tarjima nafaqat tilni almashtirish, balki murakkab va ko'p qirrali faoliyat ekanligini ta'kidlaydi. U tarjimani butunlay chet tilidagi asl nusxaga yo'naltirilgan til vositachiligining bir turi sifatida belgilaydi. Bunday nuqtai nazardan professional tarjimani, xabarning chet tilidagi shakli, to'liq tillararo aloqa – aniq va ob'ektiv deb hisoblash mumkin. Tarjimada turli madaniyatlar, fikrlash uslublari, rivojlanish darajalari, urf-odatlar va shaxslar o'zaro hamkorlik qiladi.

Terminologiyani tarjimada qo'llash jarayonida ekvivalentlik masalasi markaziy o'rin tutadi. Har bir termin uchun aniq ekvivalent topish ba'zan murakkab jarayon bo'lib, bunda transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash va funksional ekvivalent kabi metodlar qo'llanadi. Masalan, yangi texnologiyalar paydo bo'lgani sari neologizmlar ham yuzaga keladi, ularni to'g'ri tarjima qilish va ilmiy muomalaga kiritish ilmiy-texnik kommunikatsiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, terminlarni standartlashtirish, ularning yagona ma'noda qo'llanishini bir tizimga solish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Izchil terminologik yondashuv ilmiy nutqning aniqligini ta'minlab, ilmiy ma'lumotlarning chalkashmasdan o'tishini kafolatlaydi.

Ilmiy-texnik tarjimada terminlar tarjimasi alohida ahamiyatga ega, chunki ilmiy va texnologik axborotning aniqligi, mazmunning buzilmasligi hamda standartlashtirilgan terminologik yondashuv tarjimon zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shu nuqtayi nazardan, tarjima jarayonida terminlarning semantik tuzilishini

to'g'ri anglash, ularning funksional vazifasini aniqlash va mos tarjima strategiyasini tanlash zarur. Komissarov ta'kidlaganidek: "terminlar asosan bir ma'nolilikka ega bo'lishi va maxsus sohada aniq tushunchani ifodalashi bilan ajralib turadi". Ilmiy-texnik tarjimada ekvivalentlikni saqlash ham muhim tamoyildir. Levitskaya fikriga ko'ra, "terminologik ekvivalentlikka erishish — tarjimada ilmiy aniqlikning asosiy kafolatidir".

Bunda tarjimon to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent, funksional ekvivalent, tavsifiy tarjima yoki kontekstual moslashtirish kabi metodlardan foydalanadi. Masalan, software atamasi ko'pincha "dasturiy ta'minot" deb izohli tarjima qilinadi, chunki oddiy transkripsiya mazmunni to'liq bera olmaydi. Transkripsiya usuli asosan xalqaro terminlarga tatbiq qilinadi. Barxudarov qayd etadi: "chetdan kirib kelgan ilmiy terminlar o'zlashish jarayonida fonetik va grafemik moslashuvga uchraydi".

Masalan, atom, radar, laser kabi terminlar transkripsiya yo'li bilan kirib kelgan bo'lib, ular o'zbek tilidagi ma'nosini ham to'liq saqlab qoladi. Shuningdek, kalkalash usuli ham keng qo'llanadi, ayniqsa murakkab termin birikmalarida. Masalan, data base - ma'lumotlar bazasi, skyscraper - osmono'par bino shaklida tarjima qilinadi. Fedorov fikricha: "kalka tarjima terminologik tizimni boyitish bilan birga, yangi birliklarning milliy til fonologiyasiga moslashuviniham ta'minlaydi".

Biroq ba'zan to'g'ridan-to'g'ri tarjima ilmiy aniqlikni buzadi. Shu sababli Shveyser ta'kidlaganidek, "termin tarjimasida kontekst va pragmatik vazifani hisobga olish, soha mutaxassislari fikrlariga tayangan holda eng maqbul variantni tanlash zarur.

Ilmiy-texnik tarjimada terminlar nafaqat lingvistik birlik, balki muayyan ilmiy tushunchaning nomi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli tarjima jarayoni ko'pincha terminning mantiqiy tuzilishini ochish va uning ilmiy mazmunini to'g'ri aks ettirishga qaratiladi. Terminlar ko'pincha predikativ emas, nominativ xarakterga ega bo'lib, obyektiv ilmiy fakt va jarayonlarni ifodalaydi. Bu esa ularning tarjimasida subyektivlikdan holi, neytral va qat'iy mazmundagi vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Texnik matnlarda uchraydigan terminlar ko'pincha qisqa, ixcham, mazmunan zich leksik birliklar bo'lib, ularda ortiqcha ekspressivlik bo'lmaydi. Misol tariqasida

optical sensor, thermal conductivity, data bus, power amplifier kabi birliklarni keltirish mumkin. Ularni tarjima qilishda to'g'ridan-to'g'ri semantik ekvivalent tanlanadi: optik sensor, issiqlik o'tkazuvchanligi, ma'lumotlar shinas, quvvat kuchaytirgichi. Bu tipdagi terminlar strukturaviy va semantik jihatdan sodda bo'lgani sababli ularga mos o'zbekcha shakllar nisbatan oson topiladi.

Biroq ba'zi ilmiy atamalar kontekstga ko'ra turlicha ma'no kasb etishi mumkin. Misol uchun network so'zi informatika sohasida tarmoq, biologiyada esa neyron tarmog'i yoki qon tomirlar tizimi ma'nosida qo'llaniladi. Shu sababli tarjimon terminni kontekstdan ajratmagan holda talqin qilishi kerak. Mazkur holat terminning polisemantik xususiyatga ega bo'lishidan dalolat beradi.

Texnik matnlarda tarkibli terminlar keng uchraydi. Masalan:

Ingilizcha termin o'zbekcha tarjima - Control unit Boshqaruv bloki

Backup power supply Zaxira quvvat manbai

Real-time data processing Real vaqt rejimida ma'lumotlarni qayta ishlash

High-voltage converter Yuqori kuchlanishli konvertor

Microprocessor-based system Mikroprotssessorli tizim

Ko'rinib turibdiki, bunday terminlarda har bir komponent ma'no yukiga ega. Shuning uchun tarjimon semantik komponentlar o'rtasidagi ierarxiyani aniqlab, to'g'ri sintaktik moslashtirishni amalga oshirishi lozim. Terminni so'zma-so'z tarjima qilish har doim ham mos kelmasligi mumkin, ba'zan struktura o'zgartiriladi, masalan: Voltage drop — kuchlanish yo'qolishi, lekin so'zma-so'z tushishi deb tarjima qilish xato bo'ladi. Shuningdek, texnik atamalar tarkibida xalqaro affikslar keng qo'llanadi: bio-, micro-, hydro-, auto-, eco-, nano-. Ularning o'zbek tilida ham mosligi mavjud: bioenergetika, mikrochip, gidravlika, avtomatika, ekotizim, nanostruktura. Bu leksik birliklarning tarjimada saqlanishi ilmiy konsepsiyaning global uyg'unligini ta'minlaydi. Texnik tarjimada kompyuter texnologiyalariga oid terminlarning o'rnini alohida qayd etish lozim. Bunda cloud computing, machine learning, neural network, data mining, firmware, cybersecurity kabi atamalarni to'g'ri talqin qilish ilmiy aniqlikni belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ularning mos ravishda bulutli



hisoblash, mashinali o'rganish, neyron tarmoq, ma'lumotlarni qazib olish, mikrodasturiy modul, kiberxavfsizlik shakllarida tarjima qilinishi o'zbek ilmiy terminologiyasining standartlashuviga xizmat qiladi.

Ilmiy-texnik tarjimada terminologiya tarjima jarayonining markaziy komponenti bo'lib, uning to'g'ri qo'llanilishi matnning mazmuniy aniqligi, mantiqiy izchilligi va kommunikativ samaradorligini ta'minlaydi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, texnik terminlarni tarjima qilishda ekvivalentlik, standartlashtirish, transkripsiya va kalkalash kabi usullar bir-birini to'ldiradi hamda kontekstga asoslangan holda tanlanadi. Termintizimning dinamikligi tarjimondan doimiy ravishda ilmiy-texnik yangiliklarni kuzatishni va lingvistik kompetensiyasini yangilab borishni talab qiladi. Shuningdek, global texnologik taraqqiyot sharoitida xalqaro terminlarni to'g'ri o'zlashtirish va ular bilan bir qatorda milliy terminologiyani rivojlantirish o'zbek ilmiy tilining takomillashuviga xizmat qiladi. Shu bois ilmiy-texnik tarjimon nafaqat til vositachisi, balki ilmiy kommunikatsiyaning faol ishtirokchisi sifatida terminologik madaniyatni shakllantiruvchi muhim mutaxassis hisoblanadi.

### **Xulosa**

Yuqoridagi tahlillar ilmiy-texnik tarjimada terminologiyaning markaziy va hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatadi. Ilmiy-texnik matnlarda terminlar aniq semantik chegaraga ega bo'lgan nominativ birliklar sifatida namoyon bo'lib, ularning mazmunini buzmasdan boshqa tilga ko'chirish tarjima jarayonining eng mas'uliyatli bosqichlaridan biridir. Shu bois tarjimon terminlarning semantik tuzilishini, funksional vazifasini hamda sohaviy xususiyatlarini chuqur anglagan holda mos tarjima strategiyasini tanlashi zarur.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, texnik terminlarni tarjima qilishda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent, funksional ekvivalent, transkripsiya va kalkalash kabi usullar kontekstga bog'liq holda qo'llanadi va ular bir-birini to'ldiradi. Murakkab va tarkibli terminlarda komponentlar o'rtasidagi semantik ierarxiyani aniqlash hamda o'zbek tilining me'yoriy-sintaktik xususiyatlariga moslashtirish tarjimaning aniqligi va tushunarligini ta'minlaydi. Xalqaro affikslar va zamonaviy axborot

texnologiyalariga oid terminlarning standartlashgan shakllarda qo'llanilishi esa o'zbek ilmiy terminologiyasining barqarorlashuvi va global ilmiy muloqot bilan uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy-texnik tarjimon nafaqat til vositachisi, balki ilmiy bilimlarning aniq va ishonchli uzatilishini ta'minlovchi faol kommunikator sifatida namoyon bo'ladi. Terminologik madaniyatga ega bo'lish, ilmiy-texnik yangiliklarni doimiy kuzatib borish va lingvistik kompetensiyani muntazam rivojlantirish ilmiy-texnik tarjimaning sifatini oshiruvchi muhim omillar bo'lib, bu jarayon o'zbek ilmiy tilining taraqqiyotiga bevosita xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Odilova G., U.Mahmudova. O'zbek tarjimonlari va badiiy tarjimalar. Toshkent, 2012.
2. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент, 2005.
3. Гафуров И. Таржимонлик мутахассислигига кириш. – Тошкент: Mehriqiyo, 2008.
4. Хамидов Х.Х. Узбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари.-Тошкент: ТошДШИ, 2014. 148-6. 11. HamidovX.X. Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari.
5. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. Toshkent:Sharqshunoslik instituti, 2014.
6. Ochilov E. Tarjima nazariyasi. Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2014.